

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**KADIROVA RAYXONA ALISHEROVNA**

**TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA  
O‘ZBEKISTON VA TURKIYA ALOQALARINING O‘ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

**23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari”**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 327(560)+(544)  
КБК: 66.4(5Turk)+(55)  
M-24

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD)  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract  
the Doctor of Philosophy (PhD) in Political sciences**

**Kadirova Raykhona Alisherovna**

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Turkiya aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlari ..... 3

**Кадырова Райхона Алишеровна**

Особенности взаимодействия между Узбекистаном и Турцией в рамках ОТГ ... ..... 20

**Kadirova Raykhona Alisherovna**

Peculiarities of Interaction between Uzbekistan and Turkey within the Framework of the OTS ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 46

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**KADIROVA RAYXONA ALISHEROVNA**

**TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA  
O‘ZBEKISTON VA TURKIYA ALOQALARINING O‘ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

**23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari”**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ss436 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Sultanova E'tibor Sidikovna</b> siyosiy fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Muhammadsidiqov Muhammadolim Muhammadroziq o'g'li</b> siyosiy fanlar doktori, professor
	<b>Tursunmuratov Turdimurod Maxamatqulovich</b> siyosiy fanlar doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Milliy universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc/03.29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil \_\_ soat \_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (87-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil \_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.B. Sayfullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**O.I. Alimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh. A. Yovqochev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi v.b., siyosiy fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayonlari tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda zamonaviy geosiyosiy omillar O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni yangi strategik bosqichga olib chiqib, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ko‘p qirrali hamkorlikni shakllantirmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonning pragmatik va integratsiyaga ochiq tashqi siyosat strategiyasini namoyon etib, Turkiya bilan aloqalarni butun turkiy dunyo miqyosida strategik hamkorlik darajasiga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Dunyo miqyosidagi tahliliy markazlar, xalqaro munosabatlar institutlari va mintaqaviy hamkorlik masalalariga ixtisoslashgan ilmiy muassasalar turkiy davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini o‘rganishda huquqiy va siyosiy aloqalar, investitsion hamkorlik, ta‘lim va fan, turizm, raqamli transformatsiya hamda “yashil iqtisodiyot”ni ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilaydi. Bu yo‘nalishlar ikki tomonlama hamkorlikning amaliy poydevorini shakllantiribgina qolmay, mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash, intellektual almashuvni rivojlantirish, iqtisodiy manfaatdorlik va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tashqi siyosatida turkiy davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish nafaqat mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish, balki xalqaro maydonda yangi imkoniyatlar yaratish omili sifatida ham qaraladi. Turkiy davlatlar tashkiloti shu maqsadda siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik, ilm-fan va texnologiya, transport-logistika, raqamli innovatsiyalar va ekologik barqarorlik kabi yo‘nalishlarda umumiy manfaatlarni birlashtiruvchi faol maydon vazifasini bajaradi. O‘zbekistonning ushbu tashkilot doirasida ilgari surayotgan aniq loyihalari va tashabbuslari mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish bilan birga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlar ochish hamda strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qiladi<sup>1</sup>. Shu bois mazkur jarayonlarni ilmiy tahlil qilish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki bevosita amaliy qiymatga ega bo‘lib, uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son), “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son) farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasida milliy

---

<sup>1</sup>Выступление Президента Республики Узбекистан на заседании Совета глав государств Организации тюркских государств. Бишкек, 6 ноября 2024 года // Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/7670>

madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi (2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son), "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son) qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O'zbekiston va Turkiya hamkorligining o'rganilish darajasi yuqori bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Turkiyadagi SETA, TASAM va TİKA kabi yetakchi ilmiy markazlar muntazam ravishda kompleks tadqiqotlar olib bormoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqot markazlarining savdo-iqtisodiy aloqalar, qo'shma investitsiya loyihalari, transport-logistika tizimlari, energetika, qishloq xo'jaligi, ta'lim va madaniy diplomatiya yo'nalishlarida ikki tomonlama strategik sheriklikni mustahkamlash, mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish va TDT doirasida yangi tashabbuslarni shakllantirish borasidagi ilmiy tadqiqotlari, e'lon qilingan materiallari va hisobotlari asosida o'rganib chiqildi.

Tadqiqot ishida keltirilgan mavzuga oid olimlarning ilmiy ishlarini quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish maqsadga muvofiq:

*Birinchi guruhga* turk tadqiqotchilarining<sup>2</sup> Turkiya Respublikasining tashqi siyosati, Turkiy davlatlar tashkilotidagi faoliyati, Turkiya va O'zbekiston munosabatlari hamda TDT dorasidagi ikki davlat hamkorligi masalalari atroflicha ochib berilgan. Jumladan, Ali Balici, Kadir Sancak, İbrahim Kalin, Muharram Ersi, Ahmet Erdi Ozturk, İrfan Sancak, Tuba Çavuş, Mustafa Durmuş, Harun Yılmaz, P.M. Baki, F. Yaldız, Ç. Özer, U. Ulutaş, O.F. Tanrıseven, S.A. Emre, A. Davuto'g'li, S. Köstem, M. Durmuş, H. Yılmaz, M. Yeşiltaş va Y. Yaşar kabi turk olimlarining tadqiqotlarida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O'zbekiston va Turkiya hamkorligining strategik yo'nalishlari, tarixiy rivojlanishi, siyosiy yondashuvlari, geosiyosiy qarashlari hamda ikki tomonlama aloqalardagi amaliy tashabbuslari atroflicha tahlil etilgan.

*Ikkinchi guruhga* MDH davlatlari olimlarining<sup>3</sup> Turkiya Respublikasining tashqi siyosati, TDT doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari jumladan, O'zbekiston Respublikasi bilan madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalari, unda turk madaniy diplomatiyasi ta'siri kabi masalalarni qamrab olgan tadqiqotlarini keltirish mumkin. Xususan, tadqiqot ishida V.A. Avatkov, A.V. Yenokyan, A. Babilo, B. Asanov, A. Beloglazov, M. Axmedova, A. Grozin, O. Leonova, A.S. Isakov,

---

<sup>2</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

<sup>3</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan

Yu.V. Marvina, T. Kuzmina, I. Chixaryov, O. Ruskova, Y.A. Sofokina, A. Nasibova, E.T. Mexdiyev, A.B. Sulemanov, P.B. Parshin, A.S. Ergashev kabi olimlarning ilmiy izlanishlari muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan.

*Uchinchi guruhni*, Turkiya Respublikasining zamonaviy xalqaro munosabatlarda o‘rni, Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy hamkorlik jarayonlari, Turkiy dunyo makonidagi tashqi siyosiy faoliyati, TDT doirasidagi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki va ko‘p tomonlama munosabatlar tadqiq etilgan o‘zbekistonlik olimlarning<sup>4</sup> asarlari tashkil etadi. Ushbu olimlar sirasiga A. Jalilov, A. Qosimov, B. Imomov, M. Abdurazzoqova, H. Azimov, N. Qosimova, M. Muhammadsidiqov, Sh. Yovqochev, D. Sayfullayev, E.Sultonova, S. Jo‘rayev, F. Karimov, J.Sobirov I.Yarmuhammedova, A.B.Mamadjonov, A.Sharipov kabi yetakchi olimlar tomonidan olib borilgan. Ushbu izlanishlar tanlangan mavzuning ayni doirasda hamda uning atroflicha yoritilishida, ikki davlat hamkorlik siyosatini mohiyatini chuqur ilmiy asosda yoritib berishga xizmat qildi.

*To‘rtinchi guruh* tadqiqotlari doirasiga G‘arb olimlarining ingliz tilidagi tadqiqot<sup>5</sup> ishlarini kiritish mumkin. Jumladan, P.M.Baki, A.Pannier, H.Morgenthau, P.A.Nations, K.N.Waltz, R.O.Keohane kabi olimlar tadqiqotlarida xalqaro institutsional tuzilmalar, ularning funksiyalar, xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko‘p tomonlama munosabatlar hamda ularning xalqaro munosabatlarga ta’sir masalalari haqida batafsil ma’lumot bergan bo‘lsalar, Ç. Özer U.Ulutaş, F.Yaldız, I. Cem, Z. Fida, M. Ershi, N.Yilmaz va boshqa olimlarning tadqiqotlari Turkiyaning Turkiy davlatlar tashkilotida O‘zbekiston bilan aloqalari, asosiy maqsad va rejalari borasidagi muhim ilmiy ma’lumotlarni taqdim etadi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Turkiya hamkorligini kompleks tahlil qilish hozirgi kunda yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, uning dolzarbligi ikki davlatning so‘nggi yillarda barcha sohalarda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan hamkorligi, mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi faol ishtiroki va yangi institutsional tashabbuslarni ilgari surishidagi muhim roli bilan belgilanadi. Mavzuning o‘rganilish darajasi bo‘yicha mavjud tadqiqotlar asosan alohida yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lib, TDT doirasida O‘zbekiston – Turkiya hamkorligining siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va madaniy diplomatiya kabi barcha asosiy yo‘nalishlarini yagona tizimda qamrab olgan, izchil ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar beruvchi tadqiqotlar qilinmaganligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur mavzuning dolzarb ekanligi asoslangan bo‘lib, uni kompleks tarzda tadqiq etishni o‘z oldimizga maqsad qildik.

### **Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida belgilangan 10-sonli mavzu – «Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta’siri» doirasida amalga oshirilgan.

<sup>4</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

<sup>5</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ochib berishdan borat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Mazkur maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilandi va bajarildi:

Davlatlar o‘rtsidagi ikki tomonlama munosabatlar tushunchasining mohiyatini yoritish, mavjud nazariya va konsepsiyalarni tahlil qilish;

Davlatlarning xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik shakllarini tahlil etish va ularning institutsional xususiyatlarini aniqlash;

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikning Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasidagi hozirgi holatini o‘rganish;

“Yashil iqtisodiyot”, raqamlashtirish, “aqlii shaharlar”, ta’lim va turizm kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikning amaliy shakllarini tahlil qilish;

Turizm va tarixiy merosni asrash sohasidagi hamkorlik istiqbollari baholash hamda bu yo‘nalishdagi qo‘shma loyihalarni tahlil etish;

Ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarni o‘rganish, o‘zbek va turk tajribasini qiyosiy tahlil qilish hamda ikki tomonlama hamkorlikning institutsional mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Turkiya aloqalarining rivojlanish tendensiyalari belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** TDT doirasida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, mexanizmlari va rivojlanish tendensiyalarining hamda muammo va istiqbollar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik, muammoli-xronologik va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Xalqaro tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va faol ishtirokining ortib borishi, bugungi kunda davlatlar tashqi siyosatdagi milliy manfaatlarni amalga oshirishda institutsional tuzilmalardan samarali foydalanayotganidan kelib chiqib, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari hamda ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik jarayonlari “neoinstitutsionalizm” hamda “mintaqaviy identifikatsiya” paradigmasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, davlatlararo munosabatlar “ko‘p qirrali strategik uyg‘unlashuv” va “asimmetrik strategik uyg‘unlik” modeliga ko‘ra asoslab berilgan;

Mamlakatlarning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar platformalaridan foydalanish amaliyotini tahlil qilish asosida, tashkilot doirasida innovatsion rivojlanish texnoparklari, raqamli logistika markazlari hamda startap diplomatiyasi kabi mexanizmlar orqali TDT makonida O‘zbekistonning amaliy ishtirokini kuchaytirish hamda O‘zbekiston–Turkiya hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgan iqtisodiy diplomatiya, investitsiya platformalari, ilmiy-ta’lim aloqalari va madaniy kommunikatsiyalarni yagona integratsion tizimga birlashtirishni nazarda tutuvchi “*mintaqaviy amaliy sheriklik klasteri*” modeli ishlab chiqish taklifi ilmiy nazariy jihatdan dalillangan;

Ta’lim sohasidagi institutsional hamkorlik ikki davlat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida tuzilgan bitimlar, universitet filiallari faoliyati, qo‘shma ikki diplomli

dasturlar va akademik almashinuvlar misolida kompleks tahlil qilinib, bu jarayonning intellektual resurslar almashinuvi, malakali kadrlar tayyorlash va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishdagi o'rni aniq asoslab berilib, raqamli ta'lim va masofaviy o'qitish yo'nalishlaridagi hamkorlik imkoniyatlari texnologik infratuzilma, interaktiv platformalar, onlayn o'quv resurslari va ilg'or pedagogik metodlar kesimida baholanib, ta'lim sohasi TDT doirasida barqaror va strategik integratsiya mexanizmi sifatida dalillangan.

O'zbek va turk diasporalari o'rtasidagi yaqinlashuv jarayoni madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini kengaytirish orqali "muloqot ko'prigi"ni shakllantirib, bu jarayon diasporalar diplomatiyasini rivojlantirishga, ularning ikki tomonlama munosabatlardagi rolini kuchaytirishga hamda xalq diplomatiyasi imkoniyatlarini yanada samarali qo'llashga sezilarli hissa qo'shayotgani ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikning Turkiy davlatlar tashkiloti formati doirasida olib borilgan tahlili asosida mavjud va istiqbolli hamkorlik yo'nalishlarini institutsional jihatdan mustahkamlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi;

TDT doirasida savdo, iqtisodiyot, ta'lim, raqamli transformatsiya va "yashil iqtisodiyot" sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish mexanizmlari belgilandi, ta'lim, turizm va investitsiya kabi yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirishda foydalanilishi mumkin bo'lgan strategik tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari TDTning mintaqaviy siyosiy-iqtisodiy platforma sifatidagi rolini oshirish, O'zbekistonning tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash va milliy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek mazkur dissertatsiyada keltirilgan xulosa va yondashuvlar vazirlik va idoralar, ta'lim muassasalari hamda xalqaro hamkor tashkilotlar faoliyatida analitik va konseptual asos sifatida qo'llanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassisleri uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida "Konfliktologiya", "Siyosatshunoslik", "Geosiyosat", "Jahon siyosati" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Turkiya aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalari asosida:

Xalqaro tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va faol ishtirokining ortib borishi, bugungi kunda davlatlar tashqi siyosatdagi milliy manfaatlarni amalga oshirishda institutsional tuzilmalardan samarali foydalanayotganidan kelib chiqib, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari hamda ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik jarayonlari “neoinstitutsionalizm” hamda “mintaqaviy identifikatsiya” paradigmasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, davlatlararo munosabatlar “ko‘p qirrali strategik uyg‘unlashuv” va “asimmetrik strategik uyg‘unlik” modeliga ko‘ra asoslab berilganligi borasidagi ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025-yil 25-iyundagi 04-04-02/1682-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

O‘zbek va turk diasporalari o‘rtasidagi yaqinlashuv jarayoni madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitini kengaytirish orqali ikki xalq o‘rtasida mustahkam “muloqot ko‘prigi”ni barpo etib, diasporalar diplomatiyasini rivojlantirishga, ularning ikki tomonlama munosabatlardagi rolini kuchaytirishga hamda xalq diplomatiyasi imkoniyatlarini yanada samarali qo‘llashga sezilarli hissa qo‘shayotgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu ilmiy xulosalardan O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi faoliyati hamda axborot, tahliliy xujjatlarini tayyorlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Shanxay Hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiya markazining 2025-yil 23-iyundagi 04-04-02/1662-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid tahliliy bazani boyitishga, tashqi hamkorlikda madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirishga va amaliy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Ta’lim sohasidagi institutsional hamkorlik ikki davlat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida tuzilgan bitimlar, universitet filiallari faoliyati, qo‘shma ikki diplomli dasturlar va akademik almashinuvlar misolida kompleks tahlil qilinib, bu jarayonning intellektual resurslar almashinuvi, malakali kadrlar tayyorlash va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishdagi o‘rni aniq asoslab berilib, raqamli ta’lim va masofaviy o‘qitish yo‘nalishlaridagi hamkorlik imkoniyatlari texnologik infratuzilma, interaktiv platformalar, onlayn o‘quv resurslari va ilg‘or pedagogik metodlar kesimida baholanib, ta’lim sohasi TDT doirasida barqaror va strategik integratsiya mexanizmi sifatida asoslanishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi ish faoliyati va axborot tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 10-noyabrda 01/17-4827-son*

*ma'lumotnomasi*). Natijada mazkur takliflar vazirlik tizimi idoralari me'yoriy-huquqiy va axborot-tahliliy bazasini takomillashtirish va ularni amaliy qo'llashga xizmat qildi.

Mamlakatlarning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar platformalaridan foydalanish amaliyotini tahlil qilish asosida, tashkilot doirasida innovatsion rivojlanish texnoparklari, raqamli logistika markazlari hamda startap diplomatiyasi kabi mexanizmlar orqali TDT makonida O'zbekistonning amaliy ishtirokini kuchaytirish hamda O'zbekiston–Turkiya hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgan iqtisodiy diplomatiya, investitsiya platformalari, ilmiy-ta'lim aloqalari va madaniy kommunikatsiyalarni yagona integratsion tizimga birlashtirishni nazarda tutuvchi “mintaqaviy amaliy sheriklik klasteri” modeli ishlab chiqish taklifi borasidagi ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025-yil 25-iyundagi 04-04-02/1682-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ilmiy ishni yozish doirasida keng qamrovli materiallar ishlab chiqildi, maqolalar va tahliliy materiallar konferensiyalarda dissertatsiya natijalari sifatida aprobatsiyadan o'tkazildi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro darajadagi va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (ulardan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Tadqiqning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e‘lon qilingan ishlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlatlaro munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafi *“Ikki tomonlama munosabatlar”* kategoriyasining mohiyati va tushunchasi, mavjud nazariyalar hamda konsepsiyalarga bag‘ishlangan. Ushbu paragrafda ikki tomonlama munosabatlarning xalqaro huquqning umumiy tan olingan tamoyillariga asoslangan, ikki suveren davlat o‘rtasida shakllanadigan va rasmiy darajada mustahkamlanadigan murakkab, barqaror hamkorlik tizimi sifatida izohlanadi. Ularning mazmuni siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta‘lim, fan, texnologiya, mudofaa va boshqa sohalarida olib boriladigan doimiy hamkorlik jarayonlarini qamrab oladi.

Paragrafda ikki tomonlama munosabatlarning asosiy amaliy ko‘rinishlari oliy darajadagi rasmiy tashriflar, hukumatlararo komissiyalar, diplomatik vakolatxonalar orqali aloqalar, savdo-iqtisodiy forumlar, madaniy-ilmiy tadbirlar, strategik sheriklik bitimlari va qo‘shma hujjatlar imzolash kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, bu munosabatlarning huquqiy poydevori bo‘lmish xalqaro shartnomalar, ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlar, hamkorlikning milliy tashqi siyosat konsepsiyalarida ifodalanishi ochib berilgan. Nazariy asos sifatida realizm va neorealizmda kuch muvozanati, milliy manfaat va xavfsizlik, liberalizm va institutsionalizmda o‘zaro bog‘liqlik hamda tashkilotlar orqali barqarorlik, konstruktivizmda tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va identitet, anglashuv maktabida xalqaro huquq va diplomatik an‘analalar, sivilizatsion yondashuvda til, din va madaniyat omillari, feminist va postkolonial qarashlarda esa tenglik va g‘arbmarkazchilikdan voz kechish masalalari tahlil qilingan. O‘zbekiston–Turkiya hamkorligi bu yondashuvlarning amaliy namunasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Ya‘ni, realizmda strategik sheriklik va xavfsizlik, liberal va institutsional yondashuvlarda ta‘lim, turizm, investitsiya va madaniy almashinuv, konstruktivizmda umumiy tarixiy-madaniy meros va qadriyatlar asosiy o‘rin tutadi. TDT doirasida TURKPA, TURKSOY, Turkic Investment Fund kabi tuzilmalar orqali hamkorlik ushbu yondashuvlarning uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishidir. *“Davlatlarning xalqaro tashkilotlar doirasidagi o‘zaro hamkorligi – jarayonning asosiy tarkibiy qismlari. Nazariy-amaliy jihatlari”* nomli ikkinchi paragrafda xalqaro tashkilotlarning zamonaviy geosiyosiy sharoitda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati keng izohlangan. Unga

ko‘ra xalqaro tashkilotlar suveren davlatlar uchun tashqi siyosatni amalga oshirish vositasi bo‘lish bilan birga, global barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash, iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish hamda umumiy qadriyatlarni targ‘ib etish uchun ham muhim platforma hisoblanadi. Qolaversa, paragrafda xalqaro tashkilotlarning global, mintaqaviy va sohaviy turlari, ularning asosiy funksiyalari – siyosiy-diplomatik muloqotni yo‘lga qo‘yish, huquqiy asos yaratish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va axborot almashinuvi kabi yo‘nalishlar izchil bayon qilingan. Misol sifatida Yevropa Ittifoqi, ASEAN, ShHT va Turkiy davlatlar tashkiloti kabi tuzilmalar faoliyati keltirilib, ularning samaradorligini ta‘minlaydigan institutsional mexanizmlar va amaliy loyihalar tahlil qilingan. Bu tashkilotlar doirasida ta‘lim, madaniyat, fan, transport-logistika, energetika va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi hamkorlik tashabbuslari alohida ko‘rsatilgan. Xalqaro tashkilotlar davlatlararo aloqalarni chuqurlashtirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, strategik hamkorlikni kengaytirish va mintaqaviy hamda global miqyosdagi integratsiya jarayonlarini jadallashtirishda nazariy va amaliy jihatdan muhim institutsional maydon ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston va Turkiyaning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorligini bugungi holati”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafi *“Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Turkiya investitsiyalarining O‘zbekistonda savdo, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalaridagi huquqiy bazasi”* masalasiga bag‘ishlangan. Unda so‘nggi yillarda izchil takomillashtirilgan normativ-huquqiy baza ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni, ayniqsa TDT doirasidagi integratsion jarayonlarni mustahkamlashdagi o‘rni nuqtai nazaridan keng yoritilgan.

Turkiya kapitalining O‘zbekistonda faoliyat yuritishi uchun yaratilgan asosiy shartnomaviy-huquqiy poydevor sifatida investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha bitimlar, ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish kelishuvlari, do‘stlik va hamkorlik shartnomalari hamda fuqarolik, savdo va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam to‘g‘risidagi bitimlar keltirilgan. Savdo sohasida erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonun, litsenziyalash tartibi va bojxona imtiyozlari; qishloq xo‘jaligida yer ijarasi va agrokorxonalarini rivojlantirishga oid qoidalar; qurilishda EPC modeli, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) va tender tartib-qoidalarini belgilovchi hujjatlar tahlil qilinadi. “TURAN SEZ” va “Turkic Investment Fund” kabi TDT institutsional mexanizmlarining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi ahamiyati, UzTurk savdo-sanoat palatasi, ETÜ universiteti filiali, agrar klasterlar va sanoat zonalar kabi hamkorlik platformalari ko‘rsatiladi. TDT doirasida qabul qilingan “Savdo yengilliklari strategiyasi”, agrar platforma (“TURKIC AGRO”), transport-logistika loyihalari va ko‘p tomonlama investitsion dasturlar hamkorlikning huquqiy-institutsional asosini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Turkiya kapitali uchun yaratilgan imtiyozlar – investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari, kapitalni repatriatsiya qilish huquqi, soliqqa oid yengilliklar, davlat kafolatlari va infratuzilma qo‘llab-quvvatlovi – savdo, qishloq xo‘jaligi va qurilish

sohalarida barqaror, uzoq muddatli va strategik hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2.2-paragrafda O‘zbekiston va Turkiya hamkorligida “yashil iqtisodiyot”, raqamlashtirish, “aqlii shaharlar”, ta’lim va turizm sohaları yangi asosiy yo‘nalishlar sifatida tahlil qilingan. Turk davlatlari tashkiloti platformasi ikki tomonlama aloqalarni an’anaviy savdo va investitsiyadan chiqib, barqarorlik, ilg‘or texnologiyalar va inson kapitaliga tayanadigan hamkorlik modeliga o‘tkazmoqda. O‘zbekistonning 2019 yildan TDTga to‘laqonli a‘zo bo‘lishi bu yo‘nalishlarda siyosiy irodani institutsional mexanizmlar bilan mustahkamlashga xizmat qilgan. Yashil iqtisodiyot bo‘yicha TDT sammitlarida ilgari surilgan “Yashil rivojlanish makoni” tashabbusi doirasida hamkorlik energiya tizimini toza manbalarga o‘tkazish, qayta tiklanuvchi quvvatlarni milliy tarmoqqa ulash, ekologik infratuzilma va shaharsozlikni rivojlantirishga qaratilgan. Elektr uzatish tarmoqlarini yangilash, zamonaviy energiya ishlab chiqarish inshootlari qurish va yirik shahar markazlarida yashil hududlarni kengaytirishda turk kompaniyalari faol ishtirok etmoqda. Ekologik me‘yorlarni uyg‘unlashtirish, “yashil qurilish” va past uglerodli sanoat bo‘yicha tajriba almashish hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi, qishloq joylarda bandlikni oshirish va ekologik savodxonlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish va “aqlii shaharlar” yo‘nalishida “Yagona raqamli platforma” tashabbusi bojxona, transport, turizm va savdoda ma’lumot almashuvini tezlashtirish, “ePermit” kabi tizimlar esa yuk tashish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan. “Aqlii shahar” loyihalarida turk axborot texnologiyalari kompaniyalari bilan birga aqlii yoritish, xavfsizlik tizimlari va raqamli boshqaruv modullari joriy qilinmoqda. Ta’lim sohasida Turkish Maarif Foundation maktablari, TOBB ETÜ filiali, Ma’rif universiteti hamda TURKUNIB, Orhun, Mevlana va Erasmus+ dasturlari orqali talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi kuchaygan. Qo‘shma ta’lim dasturlari va ilmiy loyihalar, ikki diplom imkoniyati zamonaviy sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Turizmda “Tabarruk ziyorat” va “Turkiy ziyorat marshrutlari” tashabbuslari umumiy tarixiy merosga asoslangan bo‘lib, yagona brend, qo‘shma sayohat yo‘nalishlari, elektron viza va yagona turizm portali orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda. TURAN SEZ va Turkic Investment Fund kabi TDT mexanizmlari investitsiyalarni jalb etish va yashil hamda raqamli loyihalarni jadallashtirishga yordam bermoqda. Shu tarzda, yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish va aqlii shaharlar yo‘nalishlari, ta’lim va turizm bilan uyg‘unlashib, O‘zbekiston–Turkiya hamkorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Tadqiqotning uchinchi bobi **TDT doirasidagi “O‘zbekiston-Turkiya hamkorlikning muammo va istiqbollari”**ga bag‘ishlanib, uning birinchi paragrafida *“Turizm sohasidagi aloqalarni rivojlantirish va tarixiy-madaniy merosni saqlash yo‘lidagi hamkorlikdagi tashabbuslar”* masalalari yanada keng qamrovda tahlil etilgan. Unda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida so‘nggi yillarda shakllangan yangi turizm modeli nafaqat klassik ekskursiya va dam olish yo‘nalishlarini, balki ziyorat turizmi, sog‘lomlashtirish, gastronomiya, festival va madaniy tadbirlar, ilmiy-ma’rifiy safarlarni ham o‘z ichiga olishi bilan izohlangan.

Turkiya turizm sohasida 30 yildan ortiq vaqtda to'plagan xalqaro tajribasini, jumladan, e-visa tizimini avtomatlashtirish, marketing strategiyalarini diversifikatsiya qilish, mavsumiy turizm oqimini yil davomida barqaror ushlab turish kabi mexanizmlarni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha hamkorlikni kengaytirmoqda. Shu bilan birga, qo'shma tashabbuslarda hududiy brend yaratish, masalan, Samarqand va Buxorani Istanbul yoki Bursa bilan bog'lab, yagona turistik yo'nalish sifatida targ'ib etish amaliyoti rivojlanmoqda. Alohida e'tibor transport-kommunikatsiya infratuzilmasini integratsiyalashga qaratilib, ikki davlat o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni ortib bormoqda, temir yo'l va avtobus qatnovlarini ham o'z ichiga olgan multimodal transport zanjirlari shakllantirilmoqda. Bu nafaqat turistik oqimlarni tezlashtiradi, balki mintaqa ichida logistika xarajatlarini qisqartirib, xizmat sifatini oshiradi. Bundan tashqari, turizm xizmatlari bozorida turk va o'zbek kompaniyalari qo'shma investitsiya asosida mehmonxonalar tarmog'i, zamonaviy kongress va ko'ngilochar markazlar, milliy hunarmandchilik bozorlari hamda ekologik turizm ob'ektlarini tashkil etish ustida ishlamoqda. Tarixiy-madaniy merosni asrash yo'nalishida hamkorlik xalqaro standartlarga mos restavratsiya texnologiyalarini joriy etish, tarixiy obyektlarni 3D formatda hujjatlashtirish va ularning virtual ekskursiya platformalarini yaratishga qaratilgan. UNESCO, TURKSOY va TİKA ishtirokida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, shuningdek, turkiy dunyo bo'ylab yagona "Turkic Heritage Route" konsepsiyasi doirasida tarixiy shaharlar va madaniy markazlarni bog'lovchi yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar kelajakda umumiy turizm brendi ostida xalqaro miqyosda ilgari surilishi rejalashtirilmoqda. Shu tarzda, turizm va merosni asrashdagi hamkorlik ikki davlatning iqtisodiy manfaatlarini, madaniy diplomatiya salohiyatini va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida yetakchi pozitsiyalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafidagi *"Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar: o'zbek va turk tajribasining qo'llanilishi"* masalalari atroflicha tahlil qilingan. Unda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi so'nggi yillarda shakllangan yangi bosqichdagi hamkorlik tarixiy-madaniy yaqinlik bilan birga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik siyosatlarining amaliy ifodasi sifatida talqin etilgan. 2017 yildan boshlab yuqori darajadagi uchrashuvlar, strategik sheriklik bo'yicha bitimlar va xalqaro ta'lim forumlarida hamkorlikni rivojlantirishga kelishuvlar imzolangan, innovatsion boshqaruv, akademik almashinuv, raqamli ta'lim, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, ikki diplomli dasturlar va mintaqaviy ta'lim integratsiyasi yo'nalishlari bo'yicha mexanizmlar ishga tushirilgan. Paragrafda "Orhun" dasturi, TURKUNIB platformasi, TİKA va Yunus Emre instituti tashabbuslari kabi vositalar orqali professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligi, turk tilini o'qitish, madaniyat markazlari ochish, qo'shma ilmiy loyihalar va xalqaro anjumanlar tashkil etish faol rivojlanayotgani yoritilgan. 2022–2024 yillarda Istanbul, Ankara, Xadjeteppe, Egey, Bog'aziçi, Marmara kabi yetakchi turk universitetlari bilan O'zbekistonning TDSHU, TATU, SamDU, NamMTI, AndDU, O'zMU va TGYU o'rtasida memorandumlar va hamkorlik bitimlari imzolangan. Bu kelishuvlar doirasida talabalar almashinuvi, qo'shma magistratura va PhD dasturlari,

o'quv jarayonining bir qismini har ikki mamlakatda o'tash imkonini beruvchi ikki diplomli ta'lim yo'lga qo'yilgan. "Mevlana", "Erasmus+" kabi dasturlar asosida yuzlab talabalar va o'qituvchilar o'zaro ta'lim va malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ilmiy hamkorlik TÜBİTAK va O'zbekiston Fanlar akademiyasi o'rtasidagi bitimlarga asoslanib, biotexnologiya, genetika, geoinformatika, nanotexnologiya, kognitiv fanlar va axborot xavfsizligi yo'nalishlarida qo'shma tadqiqotlar va laboratoriya ishlari bilan mustahkamlanmoqda. YÖK Courses va Ziyonet platformalari o'rtasidagi aloqalar asosida onlayn kurslar, elektron ta'lim resurslari va vebinarlar almashuvi yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda "Turkiya tadqiqot markazi", Turkiyada esa "O'zbekiston tadqiqot markazi" faoliyati ta'lim va madaniyat sohalaridagi institutsional hamkorlikni mustahkamlamoqda.

